



## O'ZBEKISTONDA AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING MOLIYAVIY BAQARORLIGIDA MOLIYAVIY KO'RSATKICHLAR

**Xusainov Shavkat Abdushukurovich**

Raqamli iqtisodiyot va agrotexnologiyalar universiteti

ORCID: 0009-0006-4442-0834

[shavkatxusainov7@gmail.com](mailto:shavkatxusainov7@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekistondagi aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy hisobotlarini tayyorlash va tahlil qilish jarayonlari tahlil qilinadi. Moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish masalalari, jumladan, MHXS (IFRS) talablarini qo'llash orqali investitsion jozibadorlikni oshirish imkoniyatlari muhokama qilinadi. Shuningdek, milliy va xalqaro hisobot standartlarining o'zaro qiyosiy tahlili hamda zamonaviy raqamli texnologiyalarni moliyaviy tahlilda qo'llash afzalliklari yoritib berilgan. Korporativ sektorda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va uning kelajakdagi rivojlanishi uchun tahlillar asosida tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** moliyaviy hisobotlar, shaffoflik, MHXS (IFRS), aksiyadorlik jamiyatlari, moliyaviy barqarorlik, investitsion jozibadorlik, raqamli texnologiyalar, moliyaviy tahlil, korporativ sektor.

## ФИНАНСОВЫЕ ПОКАЗАТЕЛИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ АКЦИОНЕРНЫХ ОБЩЕСТВ В УЗБЕКИСТАНЕ

**Хусаинов Шавкат Абдушукурович**

Университет цифровой экономики и агротехнологий

**Аннотация.** В данной статье анализируются процессы подготовки и анализа финансовой отчетности акционерных обществ в Узбекистане. Рассматриваются вопросы прозрачности финансовой отчетности и её соответствия международным стандартам, в частности возможности повышения инвестиционной привлекательности через применение требований МСФО (IFRS). Также освещены сравнительный анализ национальных и международных стандартов отчётности и преимущества использования современных цифровых технологий в финансовом анализе. На основе проведённых исследований предложены рекомендации по обеспечению финансовой устойчивости корпоративного сектора и его будущему развитию.

**Ключевые слова:** финансовая отчётность, прозрачность, МСФО (IFRS), акционерные общества, финансовая устойчивость, инвестиционная привлекательность, цифровые технологии, финансовый анализ, корпоративный сектор.

## FINANCIAL INDICATORS IN ENSURING THE FINANCIAL STABILITY OF JOINT-STOCK COMPANIES IN UZBEKISTAN

**Khusanov Shavkat Abdushukurovich**

*University of Digital Economy and Agromechnologies*

**Abstract.** *This article analyzes the processes of preparing and analyzing the financial statements of joint-stock companies in Uzbekistan. Issues related to the transparency of financial statements and their alignment with international standards are discussed, including opportunities to enhance investment attractiveness through the application of IFRS requirements. A comparative analysis of national and international reporting standards is provided, along with the advantages of using modern digital technologies in financial analysis. Based on the conducted research, recommendations are proposed to ensure the financial stability of the corporate sector and its future development.*

**Keywords:** *financial statements, transparency, IFRS, joint-stock companies, financial stability, investment attractiveness, digital technologies, financial analysis, corporate sector.*

### **Kirish.**

Aksiyadorlik jamiyatlari (AJ) O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, ularning moliyaviy holati mamlakat iqtisodiy barqarorligiga va rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ular moliyaviy samaradorlikni oshirish, investitsiyalarni jalb qilish va mehnat resurslaridan foydalanishni optimallashtirish orqali milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, aksiyadorlik jamiyatlari shaffof moliyaviy hisobotlarni yuritish va samarali boshqaruvni amalga oshirish orqali jamiyat manfaatlariga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil oxirida O'zbekistondagi AJlarning umumiy soni 680 dan oshiqni tashkil etgan, ularning umumiy aktivlari 480 trln so'mdan ortiqni tashkil qilgan (www.stat.uz). AJlar, xususan, katta hajmdagi investitsiyalarni jalb qilish qobiliyati va yuqori darajadagi mas'uliyati tufayli iqtisodiyotning turli sohalarida yetakchi rol o'ynaydi. Shu jihatdan olganda aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy ko'rsatkichlarini tahlil qilish va ularga ta'sir etuvchi omillarga oid tadqiqotlar dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Moliyaviy tahlil kompaniyaning faoliyatini har tomonlama baholash va uning moliyaviy holati haqida aniq ma'lumot olish maqsadida moliyaviy hisobotlar asosida amalga oshiriladi. Xalqaro tadqiqotchi Mayersning (2015) fikriga ko'ra, moliyaviy tahlil kompaniyaning kelajakdagi rivojlanish istiqbollarini aniqlashda strategik ahamiyatga ega. Fridman (1992) ilmiy ishlarida moliyaviy tahlilni iqtisodiy risklarni kamaytirishning asosiy vositasi sifatida ta'riflaydi. Shu bilan birga, O'zbekistonda moliyaviy tahlilni amalga oshirishning huquqiy asoslari ham muhimdir. Xususan, "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonun va O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining moliyaviy hisobot standartlarining tatbig'iga doir me'yoriy hujjatlari moliyaviy tahlil jarayonida asosiy mezonlarni belgilaydi. Ushbu mezonlar Nurmatovning (2020) ta'kidlashicha, milliy standartlarning xalqaro standartlarga moslashuvi jarayonida moliyaviy hisobotlarning sifatini oshirib, ishonchli tahlil uchun imkoniyat yaratadi.

Respublikamizda aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy boshqaruvining tahliliy xususiyatlari, jamiyatning moliyaviy holatini aniqlash va rivojlanish istiqbollarini belgilash, shunga ko'ra, moliyaviy xatarlarni boshqarishda muhim rol o'ynaydi. Bu jarayonda moliyaviy tahlilning keng qamrovli usullari va ko'rsatkichlari qo'llanilmoqda. Axmatovning (2021) fikricha, moliyaviy holatini aniqlash orqali likvidlik va barqarorlik darajasi, shuningdek, kelajakdagi ijobiy va salbiy xatarlar aniqlanadi. Aksiyadorlik jamiyatlari o'z moliyaviy holatini,

shuningdek, majburiyatlar, likvidlik, daromad va xarajatlar dinamikasi kabi bir qator ko'rsatkichlarni tahlil qilish orqali, o'z faoliyatini boshqarishda aniq va samarali qarorlar qabul qilish imkoniga ega bo'ladi.

Tursunovning (2020) qayd etishicha, moliyaviy ko'rsatkichlar, moliyaviy holatni baholashda muhim ko'rsatkichlardan biri bo'lgan likvidlik darajasi, jamiyatning o'ziga kerak bo'lgan moliyaviy vositalarga tez yetishi va ularni o'z vaqtida to'lash qobiliyatini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich moliyaviy zudlik va jamiyatning umumiy barqarorlik holatiga ta'sir ko'rsatadi. Moliyaviy tahlilning strategik qismi kredit riski, likvidlik riski va boshqa moliyaviy xatarlarni aniqlashda katta yordam beradi.

Sharifovning (2021) fikricha, qonunchilik moliyaviy hisobotlarning to'g'ri va vaqtli taqdim etilishini talab qilib, aksiyadorlar uchun ishonchli axborot manbai bo'ladi. Hozirgi kunda, O'zbekistonda moliyaviy hisobotlar va jamiyatlar faoliyatining shaffofligini ta'minlash uchun qonunchilik mexanizmlari alohida ahamiyatga ega. Mazkur normativ-huquqiy mexanizmlar, moliyaviy hisobotlar, ularni tahlil qilish va axborotning shaffofligi kabi masalalarda aniq qoidalarni belgilagan va aksiyadorlarga va jamiyatlar rahbariyatiga aniq va ishonchli ma'lumotlarni taqdim etishni talab qiladi. Bu kabi holatlarni Rahmatov (2019) ilmiy ishida moliyaviy tahlilning to'g'ri va shaffof shaklda taqdim etilishi jamiyatning strategik qarorlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishini qayd etadi.

Hermann (2023) boshchiligidagi bir guruh tadqiqotchilar moliyaviy barqarorlikning kompaniyalar uchun strategik ahamiyatiga to'xtalib, uning iqtisodiy o'sishga ta'siri va tashqi tahdidlarga bo'lgan immunitetini tahlil qiladi. Ularning fikricha, moliyaviy barqarorlik, nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlashda, balki kompaniyaning strategik rejalari va qarzlarning to'lanishini to'g'ri belgilashda ham muhimdir. Buning natijasida, kompaniya o'zining moliyaviy holatini barqarorlashtirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun zarur bo'lgan yangi moliyaviy strategiyalarni joriy qilishga qodir bo'ladi.

Ta'kidlanganidek, Ajlarning moliyaviy holatini baholash juda muhim ahamiyatga ega, chunki bu jarayon orqali kompaniyaning moliyaviy barqarorligi, investitsiyaviy jozibadorligi va kelajakdagi rivojlanish istiqbollari aniqlanadi. Nazariy jihatdan, moliyaviy holatni baholash borasida Lipsis va Briks (1989) kabi tadqiqotchilar kompaniyaning likvidligi va moliyaviy barqarorligini asosiy mezonlar sifatida belgilovchi mukammal modellarni ishlab chiqqan. Shuningdek, Fosterning (1986) moliyaviy tahlil nazariyasi kompaniya aktivlari, majburiyatlari va daromadlarini to'liq tahlil qilish orqali ularning umumiy ishlab chiqarish samaradorligini baholashni taklif etadi. Mazkur tadqiqotchilar baholash jarayonida asosiy moliyaviy ko'rsatkichlardan likvidlik, rentabellik, majburiyatlar yuklamasi bilan bog'liq ko'rsatkichlar guruhiga alohida e'tibor qaratishgan.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Hozirgi kunda, O'zbekistondagi aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy hisobotlarini va tahlillarini samarali amalga oshirish uchun mukammal va qo'llab-quvvatlangan qonunchilik asosi mavjud. Moliyaviy hisobotlarning yangilanishi va shaffofligini ta'minlashning muhimligi moliyaviy bozorning rivojlanishi uchun zarurdir. 2014-yilda qabul qilingan "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunning ijrosi, aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy holatini baholash va rivojlanish istiqbollarini aniqlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Moliyaviy hisobotlarning shaffofligi nafaqat aksiyadorlar, balki davlat organlari, banklar va boshqa moliyaviy muassasalar uchun ham muhimdir. Qonun talablari asosida aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy hisobotlarning xolis va aniqligini ta'minlaganda, bu moliyaviy bozorning rivojlanishiga, sarmoyaviy muhitning yaxshilanishiga, shuningdek, xalqaro investorlarni jalb qilishga olib keladi. Moliyaviy hisobotlarning shaffofligi investorlar uchun ko'proq ishonchli va xavfsiz muhit yaratadi, ularga aksiyadorlik jamiyatlariga sarmoya kiritish uchun aniq va ishonchli ma'lumotlarni taqdim etadi.

Moliyaviy hisobotlarning shaffofligi aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilishda muhim ahamiyatga ega. Aksiyadorlar jamiyatning moliyaviy holatini tushunish, shuningdek, undagi o'zgarishlar va kamchiliklar haqida to'liq axborotga ega bo'lishlari kerak. Bu qonunlar aksiyadorlar uchun bir qator kafolatlarni yaratadi, ularga jamiyatning moliyaviy holatini aniq bilish va qarorlar qabul qilishda ishonch hosil qilish imkonini beradi. Moliyaviy hisobotlarning shaffofligi, aksiyadorlarning qarorlarini to'g'ri va asoslangan ravishda qabul qilishga yordam beradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, hozirda Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan MHXS (IFRS) talablariga muvofiqlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. Mazkur tadbirlar kompaniyalarning hisobotlarni tayyorlash jarayonini xalqaro amaliyotga yaqinlashtirib, investitsion jozibadorlikni oshirishga qaratilgan. Milliy va xalqaro hisobot standartlari o'rtasida qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, milliy standartlar ko'proq buxgalteriya hisobini tartibga solishga yo'naltirilgan bo'lsa, xalqaro standartlar biznesning umumiy moliyaviy ko'rsatkichlarini global miqyosda taqdim etishni maqsad qilgan. Masalan, IFRS foydalanuvchilarga to'liq shaffoflik va chuqur ma'lumot taqdim etishni ta'minlaydi, milliy standartlar esa ko'p hollarda mahalliy regulativ talablarga bog'liq. Ushbu qiyosiy tahlil xalqaro amaliyotga o'tish zarurligini yanada ravshan qilib beradi. Ushbu jarayonda moliyaviy hisobotlardan tashqari bozor sharoiti, raqobat muhiti va tashqi iqtisodiy omillar ham hisobga olinadi. Bu tahlil kompaniyaning moliyaviy barqarorligini baholash, investitsiya salohiyatini aniqlash va xatarlarni kamaytirishga yordam beradi.

Moliyaviy barqarorlik, o'z navbatida, jamiyatning uzoq muddatdagi faoliyatini davom ettirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslarning tizimli ravishda yig'ilishi va maqsadli sarflanishini ta'minlashni ko'zda tutadi. Barqarorlik tahlili, odatda, moliyaviy shiddat, qo'shimcha sarf-xarajatlarning kamaytirilishi va faoliyatning samaradorligini ta'minlashga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Moliyaviy tahlil, jamiyatlar faoliyatini baholashning muhim bosqichlaridan biri bo'lib, iqtisodiy xatarlarni kamaytirish, moliyaviy ahvolni yaxshilash va kelajakdagi strategik qarorlar qabul qilishda muhim rol o'ynaydi. Moliyaviy holat tahlili, faqat aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy holatini baholashga qaratilgan emas, balki jamiyatning rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish, yangi loyihalarga sarmoyalar jo'natish va kompaniyaning bozordagi o'rnini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Zamonaviy raqamli texnologiyalar moliyaviy tahlilda yangi texnologiyalar va avtomatlashtirishning ahamiyatini ko'rsatib, jamiyatlarga moliyaviy ma'lumotlarni to'g'ri va tez tahlil qilish imkonini beradi. Raqamli texnologiyalarga asoslangan yangi innovatsion usullar moliyaviy tahlildagi xatolarni kamaytirishga va ma'lumotlarni tezkor ishlashga yordam beradi.

Moliyaviy barqarorlik jamiyatning uzoq muddatdagi ish faoliyati uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan moliyaviy resurslarning samarali boshqarilishi va rivojlanishi bilan bog'liqdir. Bu, eng avvalo, jamiyatning moliyaviy resurslarining (qiymatlar, aksiyalar va boshqa resurslar) kamayishini yoki o'sishini oldini olish uchun zarur bo'lgan mablag'larni to'plashga va ularni maqsadli sarflashga asoslangan.

Moliyaviy barqarorlik va rivojlanishni ta'minlashda statistik tahlillar muhim ahamiyatga ega. Masalan, 2023-yilda korporativ sektordagi moliyaviy holat yomonlashishi kuzatildi. Tanlab olingan 70 ta korxonalarining leveraji o'suvchi trendni namoyon etdi. Korxonalar uchun xorijiy valyutadagi bank qarzlari xizmat ko'rsatish xarajatlari oshdi. Shuningdek, mazkur korxonalarda foizli xarajatlarni qoplash koeffitsienti hamda rentabellik ko'rsatkichlarida pasayish kuzatildi. Ushbu ko'rsatkichlar tendensiyasining shu tarzda rivojlanishi korporativ sektorda shoklar yuzaga kelgan davrda moliya tizimida yo'qotishlar xatarlarini kuchaytirishi mumkin (<https://cbu.uz>).


Shuningdek, bank tizimida moliyaviy barqarorlik holati xaritasi aktivlarning o'sishi hamda rentabelligi deyarli o'zgarishsiz qolganligini ko'rsatdi. 2023-yilda aktivlarning

rentabelligi ko'rsatkichi o'zgarishsiz 2,5 foiz atrofida shakllandi. 2023-yilda jami aktivlar hajmining o'sish sur'ati biroz sekinlashib, 2022-yilga nisbatan 8 foiz bandga pastroq bo'ldi.

Shuni ta'kidlash kerakki, moliyaviy barqarorlik va rivojlanishida daromadlilik va xarajatlar dinamikasi moliyaviy tahlilning muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, jamiyatning moliyaviy holatini, rivojlanish yo'nalishlarini va kelgusidagi strategiyalarini aniqlashga yordam beradi. Kompaniyalarning daromadlilik va xarajatlar dinamikasiga asoslangan tahlili ularning rivojlanish strategiyalarini to'g'ri tanlashda muhimdir (Richard 2015). Bu ko'rsatkichlar, shubhasiz, jamiyatning moliyaviy faoliyatining barqarorligi va samaradorligini baholashda muhim ahamiyatga ega. Daromadlilik ko'rsatkichlari, eng avvalo, jamiyatning mahsulot va xizmatlari orqali olinadigan daromadlarini ifodalaydi, shu bilan birga xarajatlar dinamikasi moliyaviy faoliyat uchun zarur bo'lgan resurslarning ishlatilishi, ishlab chiqarishga sarflanadigan mablag'lar va ularning kelgusi davrdagi o'sish sur'atini ko'rsatadi.

Moliyaviy strategiyalarni ishlab chiqishda, daromadlilik va xarajatlar dinamikasini tahlil qilish jamiyatlarga o'z faoliyatlarini samarali va barqaror olib borish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar taqdim etadi. Moliyaviy hisobotlarning yordamida kompaniyalar o'z faoliyatlarini tartibga solish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun aniq strategiyalar ishlab chiqish imkoniyatiga ega (To'raev 2020). Bu tahlillar asosida jamiyatning moliyaviy faoliyatini yaxshilash, daromadlarini oshirish va xarajatlarini kamaytirish yo'nalishida ishlab chiqilgan takliflar, qarzlarning to'lanishini muvofiqlashtirish, operatsiya xarajatlarini samarali boshqarish kabi strategiyalar muvaffaqiyatli joriy qilinishi mumkin.

Moliyaviy tahlilda statistik ma'lumotlarni qo'llash daromadlilik va xarajatlar dinamikasiga olib kelgan o'zgarishlarni yanada aniqroq baholash imkonini beradi. Masalan, O'zbekistondagi aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy ko'rsatkichlariga olib borilgan statistik tahlillar 2022-yilda daromadlarining 15% ga oshgani va xarajatlarning 8% ga kamaygani ko'rsatdi (<https://stat.uz>).



**1-rasm. Korxonalar va tashkilotlarning yakuniy moliyaviy natijalari bo'yicha dinamikasi, (2019-2023-yillar, yanvar-noyabr, trln so'm) (<https://stat.uz>)**

1-rasmdan ko'rinib turibdiki, 2019-2023-yillarda korxonalar va tashkilotlarning yakuniy moliyaviy natijalari bo'yicha dinamikada sezilarli o'zgarishlar kuzatildi. 2019-yilda ushbu natija 27,7 trln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilga kelib 74 trln. so'mgacha yetdi, bu umumiy miqdorning qariyb 2,7 barobarga oshganligini anglatadi. Biroq 2023-yilda moliyaviy natijalar 70,3 trln. so'mga tushdi, ya'ni 5 % miqdorida pasayish kuzatildi. 2019-2021-yillarda yillik o'sishlar tezkor va barqaror bo'lib, 2020-yilda 46,2 %, 2021-yilda esa 55,1 % o'sish qayd etildi. 2022-yilga o'tishda o'sish sur'ati sekinlashib, 17,8 %ni tashkil qildi. 2023-yildagi pasayish iqtisodiy rivojlanishdagi salbiy ta'sirlarni ko'rsatishi mumkin. 2023-yildagi qisqarishning sabablari quyidagicha bo'lishi ehtimol: iqtisodiy sharoitlarning yomonlashishi, korxonalar samaradorligining pasayishi yoki tashqi bozorlardagi bosimlar ta'sirida ko'rishimiz mumkin. Xulosa qiladigan bo'lsak, 2019-2022-yillardagi uzluksiz o'sish iqtisodiy

rivojlanishning musbat tendensiyasini ko'rsatadi. Biroq 2023-yildagi qisqarish kelgusi rivojlanish uchun tegishli choralar ko'rish zarurligini ta'kidlaydi. Sabablarni chuqur tahlil qilish, samaradorlikni oshirish, va iqtisodiy siyosatni takomillashtirish moliyaviy natijalarni yaxshilashda muhim omil hisoblanadi. Tahlil natijalari jamiyatlar uchun samarali moliyaviy strategiyalarni ishlab chiqishda muhim signal bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston statistika agentligining 2023-yil ma'lumotlariga ko'ra, aksiyadorlik jamiyatlarining rivojlanishida asosiy omillardan biri, ayniqsa, daromadlar va xarajatlarning dinamikasini baholashga qaratilgan statistik tahlillar muhim o'rin tutdi. Agentlik tahlili natijasida, 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida 2022-yilning shu davriga nisbatan solishtirganda, foydaning asosiy o'sishi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi (3 061,4 mlrd. so'm), "O'zavtosanoat" AJ (2 061,8 mlrd. so'm), "Uzbekistan Airports" AJ (343,7 mlrd. so'm)ga to'g'ri keldi. Shuningdek, 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida 2022-yilning shu davriga nisbatan solishtirganda, foydaning asosiy pasayishi "O'zkimyosanoat" AJda – 2 788,3 mlrd. so'mga, O'zbekiston to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati korxonalari uyushmasida – 1 379,5 mlrd. so'mga va Davlat aktivlarini boshqarish agentligida – 811,2 mlrd. so'm kuzatilgan. Yuqori daromadlilikka ega bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarida, xarajatlarning aniq nazorat qilinishi ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlanishida asosiy o'rin tutganini qayd etish mumkin.

Moliyaviy holat tahlilining likvidlik ko'rsatkichlari guruhi ko'rsatkichlari AJning qisqa muddatli majburiyatlarini o'z vaqtida qoplash qobiliyatini baholash imkonini beradi. Likvidlikning nazariy jihatlariga ko'ra, ushbu ko'rsatkich shirkatning qisqa muddatli aktivlari va majburiyatlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash qobiliyatini ko'rsatadi. Foster (1986) ta'kidlaganidek, likvidlik kompaniyaning moliyaviy barqarorligining asosiy indikatorlaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonlik iqtisodchi Karimovning (2020) tadqiqotlarida ta'kidlanganidek, likvidlik tahlilida majburiyatlarni qoplash uchun barqaror naqd pul oqimlarini ta'minlash muhimdir. Misol uchun, 2023-yilda AJlarning umumiy likvidlik koeffitsienti o'rtacha 1,6 darajasida qayd etilgan, bu esa ularning qisqa muddatli moliyaviy barqarorligini yanada yaxshilaganligini ko'rsatadi. Shuningdek, sanoat tarmoqlari bo'yicha likvidlik darajalarida farq mavjud: neft-gaz sohasida likvidlik koeffitsienti 1,8 ni tashkil qilgan, bank va moliya sohasida esa bu ko'rsatkich 1,4 darajasida qayd etilgan. Qurilish tarmog'ida esa likvidlik koeffitsienti 1,3 ni tashkil etgan, bu esa sektorning likvidlik muammolari borligini ko'rsatadi. Mazkur ko'rsatkichlar tarmoqlar bo'yicha moliyaviy resurslarni boshqarishda turli yondashuvlarni talab qiladi. Masalan, neft-gaz tarmog'ida likvidlikning yuqori darajasi uning yuqori naqd oqimlari bilan izohlanadi, bank sohasida esa likvidlikni qo'llab-quvvatlash uchun o'rta muddatli strategiyalar qo'llaniladi. Qurilish sektorining nisbatan past likvidlik darajasi esa u yerda aylanma aktivlarning kapitalga bog'liqligi yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Moliyaviy holat tahlilining rentabellik ko'rsatkichlari guruhi ko'rsatkichlari aksiyadorlar uchun eng muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Nazariy jihatdan, rentabellik kompaniya aktivlarining, kapitalining yoki sotuv daromadlarining samaradorligini baholovchi muhim moliyaviy indikator hisoblanadi. Merton (1998) ta'kidlaganidek, rentabellik koeffitsientlari moliyaviy samaradorlikni baholashda asosiy vosita hisoblanadi. 2023-yil davomida O'zbekistonning yirik AJlari orasida sof foyda darajasi o'rtacha 14% ni tashkil etdi. Tarmoqlar kesimida esa neft-gaz sohasida rentabellik darajasi o'rtacha 18% bo'lgan, bank va moliya sohasida 16% ni, qurilish tarmog'ida esa 12% ni tashkil etgan. Neft-gaz sohasidagi yuqori ko'rsatkichlar eksport faoliyati va yuqori qo'shilgan qiymatga bog'liq. Bank va moliya sohasidagi rentabellik kapitalning nisbatan yuqori aylanishi tufayli ta'minlangan. Qurilish sohasida esa rentabellikning nisbatan pastligi sektordagi yuqori xarajatlar va moliyaviy yuklamalar bilan izohlanadi. Mazkur ko'rsatkichlar AJlar faoliyatini tarmoqlar kesimida samarali rejalashtirish zarurligini ta'kidlaydi.

Moliyaviy holat tahlilining majburiyatlar yuklamasi (qarz munosabatlari) ko'rsatkichlari guruhi AJning qarz majburiyatlari va o'z kapitali o'rtasidagi nisbatni aks ettiradi. Nazariy jihatdan, qarz yuklamasi kompaniyaning moliyaviy barqarorligiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy

omillardan biri bo'lib, uning yuqori darajada bo'lishi kompaniyaning likvidlik muammolarini yuzaga keltirishi mumkin. Masalan, Modilyani va Millerning (1958) moliyaviy nazariyasiga ko'ra, qarz va kapitalning to'g'ri muvozanati kompaniyaning umumiy qiymatini maksimalashtirish uchun muhimdir. Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda AJlarning qarz yuki koeffitsienti o'rtacha 0,65 ni tashkil qilgan, bu esa moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun qabul qilinadigan daraja hisoblanadi. Qarz yuklamasining sanoat tarmoqlari bo'yicha tahlili shuni ko'rsatadiki, neft-gaz tarmog'ida ushbu ko'rsatkich o'rtacha 0,58 ni tashkil etgan bo'lsa, bank va moliya sohasida 0,75 ni, qurilish tarmog'ida esa 0,70 ni tashkil etgan. Neft-gaz tarmog'idagi past qarz yuki yuqori likvid aktivlarga bog'liq bo'lib, bank sohasidagi yuqori ko'rsatkich moliyalashtirish xarajatlarining miqdori bilan izohlanadi. Qurilish sohasidagi nisbatan yuqori qarz yuki esa loyihalarning moliyaviy resurslarga bo'lgan katta talabini aks ettiradi.

## 1-jadval

**Aksiyadorlik jamiyatlarining debitor va kreditor qarzdorligi, mlrd. so'm  
(2023-yil 1-dekabr holati)**

No	Aksiyadorlik jamiyatlari	Debitorlik qarzi	Kreditorlik qarzlari
1.	"O'ztransgaz" AJ	17757,4	24181
2.	"O'zavtosanoat" AJ	13222,0	22120,1
3.	"Hududiy elektr tarmoqlari" AJ	10111,6	10692,9
4.	"O'zbekiston Milliy elektr tarmoqlari" AJ	7166,9	15237,9
5.	"O'zbekiston temir yo'llari" AJ	5011,4	4611,8
6.	"O'zkimyosanoat" AJ	3983,9	4913,5
7.	"O'zbekneftgaz" AJ	13831	8712,2
8.	"Issiqlik elektr stansiyalari" AJ	12828,1	7553,5
9.	"O'zbekiston havo yo'llari" AJ	4962,9	3157,8

Manba: <https://stat.uz/uz/default/choraklik-natijalar/39033-2023-2#yanvar-dekabr>

1-jadvalda 2023-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, aksionerlik jamiyatlarining debitor va kreditor qarzdorliklari tahlili oid ma'lumotlarga muvofiq, ayrim jamiyatlarda kreditor qarzdorlik debitor qarzdorlikdan sezilarli darajada yuqori bo'lib, bu ularning moliyaviy majburiyatlarini kamaytirish zarurligini ko'rsatadi. Masalan, "O'ztransgaz" AJ va "O'zavtosanoat" AJ eng katta salbiy farqqa ega (mos ravishda -6423,6 mlrd so'm va 8898,1 mlrd so'm), bu ularning qarz majburiyatlari yuqori darajada ekanligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, "Issiqlik elektr stansiyalari" AJ va "O'zbekiston havo yo'llari" AJ ijobiy farqqa ega bo'lib, debitor qarzdorlik miqdori kreditor qarzdorlikdan yuqori ekanligi qayd etilgan. Xususan, "Issiqlik elektr stansiyalari" AJ 5274,6 mlrd so'm farq bilan yetakchi o'rinda turibdi. Eng yuqori kreditor qarzdorlik "O'ztransgaz" AJ (24181 mlrd so'm) va "O'zavtosanoat" AJ (22120,1 mlrd so'm) hisobiga to'g'ri kelsa, debitor qarzdorlik bo'yicha ham "O'ztransgaz" AJ (17757,4 mlrd so'm) va "O'zavtosanoat" AJ (13222,0 mlrd so'm) yetakchilik qilmoqda. Tendensiyalarga nazar tashlasak, debitor qarzdorligi yuqori bo'lgan jamiyatlar aktivlarini yanada samarali boshqarishlari zarur, kreditor qarzdorligi yuqori bo'lganlar esa moliyaviy majburiyatlarni kamaytirish strategiyalarini ishlab chiqishlari kerak.

Xulosa sifatida mazkur aksiyadorlik jamitalarida qarzdorlik ko'rsatkichlarini muvozanatlashtirish uchun moliyaviy majburiyatlarni optimallashtirish, debitor qarzlarni o'z vaqtida qoplash mexanizmlarini takomillashtirish lozimligi qayd etish mumkin. Fikrimizcha, bu esa umumiy moliyaviy barqarorlikka erishishda muhim omil hisoblanadi.

Aksiyadorlik jamiyatlarining (AJ) moliyaviy holatini yaxshilash hozirgi kunda iqtisodiy rivojlanishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Moliyaviy boshqaruv, shaffoflik va

investitsiya muhiti kabi yo'nalishlardagi muammolar yechilishi lozim. Chunki, aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan zamonaviy moliyaviy boshqaruv tizimlarini tatbiq qilinishi kapitaldan samarali foydalanishga va strategik qarorlar qabul qilishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu holat respublikamiz kompaniyalar uchun moliyaviy jarayonlarni avtomatlashtirish va KPI tizimini takomillashtirish orqali samaradorlikni oshirish uchun muhim vazifa sanaladi.

Shuningdek, moliyaviy hisobotlarning shaffofligi aksiyadorlar ishonchini oshiradi va investitsiya muhitini yaxshilaydi. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (IFRS) o'tish kompaniyalar hisobotlarining sifatini oshirishga hamda investorlarni jalb qilish uchun qulay muhit yaratish zarur. Jumladan, "O'zavtosanoat" aksiyadorlik jamiyati xorijiy investorlarni jalb qilish borasida samarali misol bo'lib, kompaniya soliq imtiyozlari va zamonaviy moliyaviy strategiyalar hamda ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish orqali 2023-yilda sof daromad hajmini 333,76 ming AQSh dollariga qadar oshira oldi. Bu esa, infratuzilmani rivojlantirish va reyting tizimlarini kuchaytirish orqali sarmoyadorlar uchun jozibador shart-sharoitlar yaratish lozimligi ko'rsatadi.

Fikrimizcha, AJlarning moliyaviy holatini yaxshilash uchun zamonaviy boshqaruv tizimlarini joriy qilish, hisobotlarning shaffofligini ta'minlash va sarmoyadorlar uchun qulay muhit yaratish muhim ahamiyatga ega hamda mazkur yo'nalishlardagi islohotlar respublikamiz iqtisodiy rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shadi.

### **Xulosa va takliflar.**

Shunday qilib, O'zbekiston aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy holatini yaxshilash uchun strategik yondashuv talab etiladi. Bu jarayonda moliyaviy boshqaruvni kuchaytirish, HMHS talablariga mos hisobot berish va investitsiyalarni jalb qilish asosiy yo'nalishlar hisoblanadi. Shuningdek, moliyaviy ko'rsatkichlarning doimiy monitoringi va ularning xalqaro standartlarga muvofiq tahlili AJlarning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Texnologik innovatsiyalardan foydalanish va moliyaviy hisobotlarning raqamlashtirilishini ta'minlash esa tizimning yanada shaffof va samarali bo'lishiga ko'maklashadi. Ushbu chora-tadbirlar nafaqat AJlarning, balki butun mamlakat iqtisodiyotining yanada yuqori bosqichga ko'tarilishiga yordam beradi.

Moliyaviy barqarorlikning nazariy va amaliy jihatlari shundan iboratki, uni ta'minlash uchun har bir jamiyat o'zining moliyaviy siyosati, strategik rejalari va boshqaruv qarorlarini tizimli tarzda belgilab, resurslarning samarali taqsimlanishiga e'tibor qaratmoqda. Barqarorlikning ta'minlanishi moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, ortiqcha sarf-xarajatlarni kamaytirish va iqtisodiy faoliyatni muvofiqlashtirishga qaratilgan strategiyalar bilan amalga oshiriladi.

Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy ko'rsatkichlarni asosida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash strategiyalari quyidagi asosiy yo'nalishlarni qamrab olishi:

1. **Hisobotlar va monitoring tizimini yaratish:** Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun har bir jamiyat o'zining moliyaviy hisobotlarini to'liq va shaffof ravishda shakllantirishga e'tibor qaratishi kerak. Bu, jamiyatning moliyaviy samaradorligini monitoring qilish va tahlil qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni to'plashga yordam beradi.

2. **Tashqi omillarni tahlil qilish:** Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash jarayonida tashqi iqtisodiy faktorlar, bozordagi raqobat, aholining iqtisodiy sharoiti va shu kabi omillar ham hisobga olinishi zarur. Moliyaviy barqarorlik strategiyalari ushbu omillarni hisobga olishga va ulardan foydalanishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

3. **Moliyaviy samaradorlikni oshirish:** Jamiyatning moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun sarf-xarajatlarni optimallashtirish va kirim-chiqimni samarali boshqarish muhimdir. Bu, to'lovlar, investitsiyalar, qarzlarning to'lanishi va boshqa moliyaviy amaliyotlarning barqarorligini ta'minlashga qaratilgan strategiyalar bilan amalga oshiriladi.

Fikrimizcha, moliyaviy barqarorlik tahlili aksiyadorlik jamiyatining qiyinchiliklar va tashqi iqtisodiy tahdidlarga qarshi immunitetini kuchaytirishga yordam beradi. Bu jarayonda



qo'shimcha sarf-xarajatlarni kamaytirish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish, moliyaviy hisobotlar va faoliyatni yaxshilash maqsadida taklif qilingan strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

**Адабиётлар / Литература / Reference:**

- Axmatov I. (2021). *Moliyaviy tahlil va jamiyatlar barqarorligi*. Toshkent: O'DJTU.
- Foster, George (1986). *Financial Statement Analysis*. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall.
- Friedman, M. (1992). "Risk and Financial Stability," *Journal of Economic Perspectives*, 6(3), pp.45-62
- Karimov Sh. (2020) *Moliyaviy tahlil: nazariya va amaliy jihatlar*. Toshkent: Fan, 2020
- Lipsey, Richard G. (1989) *Positive Economics*. New York: Oxford University Press.
- Merton, Robert C. (1998) *Applications of Option-Pricing Theory: Twenty-Five Years Later*. *American Economic Review*.
- Modigliani, Franco, and Merton H. Miller. (1958) *The Cost of Capital, Corporation Finance and the Theory of Investment* // *American Economic Review*.
- Myers, J.R. (2015). "Financial Analysis Techniques," Cambridge University Press
- Ndoya, Hermann & Bruno, & Nkoa, Emmanuel & Kemeze, Francis & Kemeze, Hypolite & Tii, & Nchofoung, Tii. (2023). *Financial development and economic complexity: The role of country stability*. // Welley. *Economics of transition and institutional change*. 1-33
- Nurmatov, Sh.R. (2020) "Moliyaviy hisobotlar sifatini oshirish yo'nalishlari," Toshkent: Moliya nashriyoti
- Rahmatov A. (2019). *Moliyaviy hisobotlar va shaffoflik: Jamiyatlarning strategik qarorlari* Toshkent: TDIU
- Richard Brady (2015) *Corporate Finance: Analysis and Strategies*. Wiley Finance 2015
- Sharifov Sh. (2021). *Moliyaviy hisobotlar va qonunchilik: Aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish*. Toshkent: Toshkent yuridik universiteti nashriyoti.
- To'raev A. (2020) *O'zbekistondagi aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy strategiyalari*. T.: Fan.
- Tursunov B. (2020). *Strategik tahlil va moliyaviy xatarlar*. Toshkent: O'zbekiston moliya instituti nashriyoti.